

**BOBUR SHE'RIY ASARLARIDA METAFORALARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATI****Sayidova Gulrux Yoqubovna,***O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida doktoranti***Boboqulova Feruza Fazliddin qizi,***BuxDU o'zbek filologiyasi magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur she'riy asarlarida metaforalarning leksik-semantik xususiyatlari lingvopoetik yondashuv asosida kompleks tarzda o'rganilgan. Ishda metafora hodisasining nazariy asoslari, uning semasiologik mohiyati tahlil qilingan. Shuningdek, metaforaning Sharq adabiyotidagi muqobili hisoblangan istiora tushunchasi, uning tashbih bilan munosabati hamda struktur-semantik xususiyatlari ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Tadqiqot jarayonida Bobur lirikasida qo'llanilgan metaforalarning tipologiyasi ishlab chiqilib, ular zoomorfik, fitomorfik, kosmomorfik, naturmorfik, teomorfik va abiomorfik turlarga ajratilgan holda tahlil etilgan. Har bir metafora turi muayyan semantik maydon doirasida ko'rib chiqilib, ularning obraz yaratishdagi roli, emotsional-ekspressiv bo'yoqdorligi va individual muallif uslubini shakllantirishdagi o'rni aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** metafora, lingvopoetika, leksik-semantik tahlil, isti'ora, o'xshatish, Bobur she'riyati, semantik ko'chish, badiiy obraz, milliy dunyoqarash, mifologik tafakkur, ifoda vositalari.

**Аннотация.** В данной статье на основе лингвопоэтического подхода комплексно изучаются лексико-семантические особенности метафор в поэтических произведениях Захириддина Мухаммада Бабур. В работе анализируются теоретические основы феномена метафоры, ее семасиологическая сущность. Также на основе научных источников выделено понятие метафоры, которая является альтернативой метафоре в восточной литературе, ее взаимосвязь со сравнением, а также ее структурно-семантические особенности. В процессе исследования была разработана и проанализирована типология метафор, используемых в лирике Бабур, путем разделения их на зооморфный, фитоморфный, космоморфный, натурморфный, теоморфный и абиеоморфный типы. Каждый тип метафор рассматривается в рамках определенного смыслового поля, определяется их роль в образотворчестве, эмоционально-экспрессивной окраске, а также роль в формировании индивидуального авторского стиля.

**Ключевые слова:** метафора, лингвопоэтика, лексико-семантический анализ, исти'ора, сравнение, поэзия Бабур, семантическая миграция, художественный образ, национальное мировоззрение, мифологическое мышление, средства выражения.

**Abstract.** In this article, the lexical-semantic features of metaphors in the poetic works of Zahiriddin Muhammad Babur are comprehensively studied based on the linguopoetic approach. Theoretical foundations of the phenomenon of metaphor, its semasiological essence are analyzed in the work. Also, the concept of metaphor, which is an alternative to metaphor in Eastern literature, its relationship with simile, and its structural-semantic features are highlighted based on scientific sources. In the process of research, a typology of metaphors used in Babur's lyrics was developed and analyzed by dividing them into zoomorphic, phytomorphic, cosmomorphic, naturmorphic, theomorphic and abiomorphic types. Each type of metaphor is considered within a specific semantic field, and their role in image creation, emotional-expressive coloring, and their role in the formation of the individual author's style are determined.

**Keywords:** metaphor linguopoetics, lexical-semantic analysis, isti'ora, simile Babur's poetry, semantic migration, artistic image; national outlook, mythological thinking, means of expression.

**Kirish.** Ko'chma ma'no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri metaforalar bo'lib, unda muayyan narsa, belgi va harakat ikkilamchi nomlanadi.

M.Mirtojiyev «O‘zbek tili semasiologiyasi» monografiyasida metaforalarning uch turini ajratadi: oddiy metafora, personifikatsiya (jonlantirish), sinesteziya. Trop tizimida sinestetik metaforalar muhim o‘rin tutadi. Uning mohiyati shundaki, bir sezgi a‘zosi bilan idrok etiladigan narsa yoki tushuncha boshqa sezgi a‘zosi bilan idrok etiladigan narsa-tushunchaga o‘xshatiladi, yaqinlashtiriladi va shu asosda ko‘chma ma‘no hosil etiladi. Bunga *yengil tabassum, yengil nigoh, yengil qadam* kabilarni misol tarzida aytib o‘tish mumkin.

*Metafora* so‘zi grek tiliga oid bo‘lib, uning asl lug‘aviy ma‘nosi *ko‘chirish*dir. U hosila ma‘no yuzaga kelishi hodisalari orasida eng sermahsul usul hisoblanadi. Mazkur til hodisasi qadimdan kishilarni qiziqtirib kelgan va u haqidagi empirik, nazariy qarashlar qadimgi davrlardayoq yuzaga kelgan. Metafora – nutq mexanizmi, biror leksema denotatining tashqi, zohiriy o‘xshashligi asosida boshqa ma‘noni ifodalash uchun ishlatilishidir. R.Qo‘ng‘urov fikricha, metafora yashirin o‘xshatish bo‘lib, oddiy qiyosdan farq qiladi, agar oddiy qiyos har doim asosiy ikki a‘zodan tashkil topsa (ya‘ni qiyos qilinuvchi va qiyos qilinadigan predmetdan), metaforada esa faqat ikkinchi a‘zo, ya‘ni o‘xshatilgan narsa qoladi, o‘xshagan narsa tushiriladi, lekin u matndan ochiq va aniq sezilib turadi, demak, metaforada tasvirlanayotgan predmet ana shu ikkinchi a‘zo orqali idrok qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunda metaforalarning lisoniy, mazmuniy va uslubiy xususiyatlari o‘zbek tilshunosligida ancha keng o‘rganilgan. Tadqiqotlarning «aksariyatida metaforaning asosiy mohiyatini o‘xshatish, qiyoslashdan iborat mantiqiy amal tashkil etishi aytilgan». Metafora Sharq she‘riyatida istiora deb ataladi va u ma‘naviy san‘atning bir turi hisoblanadi. Adabiyotshunos olim A.Hojiahmedov o‘zining «She‘riy san‘atlar va mumtoz qofiya» asarida istiora xususida quyidagilarni yozadi: «Istiora arabcha so‘z bo‘lib, «biron narsani omonatga (vaqtincha) olmoq» degan ma‘noni ifodalab, adabiy asarda so‘zni o‘z ma‘nosidan boshqa bir ma‘noda, uni haqiqiy ma‘nosida emas, balki majoziy bir ma‘noda qo‘llash san‘ati sanaladi. Ko‘pincha bu ikki ma‘no o‘zaro o‘xshashlikka asoslanadi. Shu jihatdan istiora tashbih san‘atiga yaqin turadi. Istiora aksar hollarda tashbihi kinoyaga, ya‘ni mushabbihi tushirilgan tashbihga teng keladi».

Ayni damda buyuk alloma Abdurauf Fitratning istiora xususidagi ilmiy-nazariy qarashlariga alohida to‘xtalib o‘tsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Abdurauf Fitrat 1926-yilda chop etgan “Adabiyot qoidalari” nomli qo‘llanmasida istioraga quyidagicha tavsif beradi: “*Bir so‘zning o‘z ma‘nosidan boshqa bir ma‘no uchun ishlatilmakidir. Shul shart bilankim, u so‘zning o‘z ma‘nosi bilan yangi ma‘nosi orasida bir turli o‘xshashlik bo‘lsun*”. Fitratning mazkur tavsifidan ko‘rinib turibdiki, istiorada muayyan so‘z o‘z ma‘nosida emas, balki majoziy bir ma‘noda ifodalanadi va bunda so‘zning o‘z ma‘nosi bilan ko‘chma ma‘nosi o‘zaro o‘xshashlikka asoslanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda lingvopoetik, leksik-semantik va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Zahiriddin Muhammad Bobur she‘riy matnlaridagi

metaforalar semantik maydon asosida tasniflanib, ularning struktur va funksional xususiyatlari qiyosiy-tahliliy yondashuv orqali o'rganildi. Shuningdek, metaforalarning badiiy-estetik vazifasi hamda muallif individual uslubini shakllantirishdagi o'rni interpretativ tahlil asosida yoritildi.

**Tahlillar va natijalar.** Qadim tarixiga ega bo'lgan, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy jihatdan taraqqiy etgan har bir xalqning tilida metaforalar tizimi o'ziga xos tarzda shakllangan. Metaforalarning katta bir qismi *miflarga*, *animizmga* borib taqaladi. Bu metaforalar tizimi avlodlardan avlodga o'tib, tarkibi boyib boradi. Metaforalar xalqning o'ziga xos an'analari, rasm-rusmlari, urf-odatlarini, diniy e'tiqodi va madaniyati bilan bevosita bog'liq tarzda paydo bo'ladi. Kishilarning kundalik hayotida ko'p aloqador bo'lgan, ular tomonidan tez-tez murojaat etiladigan aniq narsa, o'simlik va hayvonlar nomi metaforalashtiriladi. Metaforalardan badiiy asarlarda o'z o'rnida mohirona foydalanish ijodkorning badiiy tafakkuri va mahoratiga bog'liq bo'ladi. Ayonki, tilda metaforalarning ko'plab ko'rinishlari mavjud. Uning fitomorfik, zoomorfik, antropomorfik, kosmomorfik hamda abiomorfik, toponimik metafora kabi turlari farqlanadi.

Shunga ko'ra, o'zbek mumtoz adabiyotining zabardast vakillaridan biri Zahiriddin Muhammad Bobur lirik asarlarida metaforalarning leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish shoir tilining badiiy imkoniyatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan ham biz ushbu ishimizda ijodkorning lirik asarlaridagi metaforalarning leksik-semantik xususiyatlarini tizimli bir shaklda tadqiq qilishga harakat qildik.

1. **Zoomorfik metafora.** Insoniyat azal-azaldan borliqdagi hayvonlar va jonivorlar bilan juda yaqin munosabatda bo'lgan. Buning muayyan sabablari bor: birinchidan, hayvonot olami insonlar uchun asosiy ozuqa manbaidan biri bo'lsa, ikkinchidan, ular kundalik hayotda yordamchi ish kuchi vazifasini bajargan va uchinchidan, ov qilishda asosiy vosita hisoblangan. Ayni holat insonlarning hayvonot olami sir-asrorlarini azaldan yaxshi bilib olishga, uy hayvonlarini o'zlariga yaqin tutishiga, ularning ko'magidan samarali foydalanishga yoki yovvoyi hayvonlarga nisbatan jiddiy mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishga, umuman, ularga alohida e'tibor bilan qarashga olib kelgan. Xususan, qadimgi turkiy manbalarda va boshqa badiiy manbalarda bo'lgani kabi qahramonlar xatti-harakatlari, holatlari, tashqi va ichki qiyofasini gavdalantirishda, ularning tengsiz kuch-qudrat sohiblari ekanliklarini obrazli ifodalashda tematik jihatdan xilma-xil bo'lgan leksik birliklardan keng foydalaniladi. Mumtoz adabiyotda, ayniqsa, zoonim nomlarining metafora asosida qo'llanishi keng tarqalgan bo'lib, ular mazmun va mohiyatiga ko'ra qadimgi turkiy yozma manbalarda uchraydigan bu tipdagi badiiy ifoda vositalari bilan mushtaraklik kasb etadi. Zero, bizgacha etib kelgan yozma manbalarning guvohlik berishicha, zoonimlar turkiy xalqlar turmushida va badiiy ijodida metaforik qo'llanilishi tufayli shaxsning tengsiz kuch-qudratini, jasoratini ifodalovchi vosita bo'lib qo'llangan.

Sening uchun vatanim ko'hu dasht bo'lg'usidur,

Aning uchunki, *vafosiz g'azol* ko'runasen.

Ushbu baytda zoomorfik metaforani yuzaga keltirgan so'z *g'azol* so'zi arabcha so'zdan olingan bo'lib, **kiyik**, **ohu** degan ma'noni bildiradi. Mumtoz adabiyotda, ushbu so'z go'zallik, noziklik, qo'rqqoq va tez qochuvchi ma'shuqa timsoli sifatida ishlatiladi. Ushbu baytda ham *g'azol* so'zi go'zallik, noziklik timsoli ma'nosida kelgan. She'riy baytda izohtalab so'zlardan biri ko'hi dasht. Ushbu so'z "Navoiy asarlarining izohli lug'ati" da ko'h (وه) – tog', dasht (دشت) – sahro, cho'l, keng tekislik. Bu birikma mumtoz adabiyotda ko'pincha o'z ma'nosida emas, balki ko'chma ma'noda *g'urbat*, *sargardonlik*, *hijron*, *yurtni tark etish*, *yolg'izlik* ma'nolarida kelgan. Ya'ni oddiy geografik joy nomi, emas, balki ruhiy holat ifodasi ham bo'ladi. Ey yor, sen menga sadoqatsiz ohu (*g'azol*) kabi ko'rinasan. Shuning uchun mening vatanim sen uchun tog' -u sahroga aylanadi (ya'ni, men sen tufayli vatanni tark etishga ham tayyorman). Ushbu baytda shoirning mahoratini bir paytning o'zida uchta metaforik obrazni keltirganida ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, *Vatan bu – oshiqning qalbi, vafosiz g'azol- mashuqa, ko'hi dasht – g'urbat, sargardonlik*.

Zahiriddin Muhammad Bobur lirik asarlarida zoomorf metafora bo'lib kelgan so'zlardan biri it so'zidir. Mazkur zoonim shaxsning subyektiv munosabatini ifodalashda eng faol qo'llaniladi. Xarakterli tomoni shundaki, it so'zi o'zbek tilida etalon bo'lib kelgan o'xshatishlar, metaforalar soni o'ndan ortiq bo'lib, ularning barchasi insonga nisbatan qo'llangan. Buning sabablari sifatida quyidagilarni aytib o'tish mumkin:

1. itni osonlik bilan qo'lga o'rgatish mumkin, uning tabiatida moslashuvchanlik juda kuchli. Shunga ko'ra, it qo'lga o'rgatilgan eng dastlabki xonaki hayvon bo'lib o'zbek xalqining turmush tarzida muhim o'rin tutadi.

2. it mumtazam ravishda insonlarning ko'z o'ngida bo'lganligi, insonlar ularning kayfiyati, harakati va tabiatidan yaxshi xabardor ekanligi sabab itga xos xususiyatlar ko'chma ma'noda insonga ko'chirilgan. Shu va boshqa sabablarga ko'ra it so'zining majoziy ma'noda qo'llanishi ko'p kuzatiladi. It vafodorlik va sodiqlik timsoli sifatida shoir asarlarida ko'p uchraydi.

Qayong'a borsang, *itingmen*, o'zumni yetkuroyin,

Etishmasam sanga, boqib duo qilib huroyin.

Ayonki, it azaldan vafodorlik va sadoqat timsoli hisoblanadi, hech qachon egasiga xiyonat qilmaydi. Shoir ushbu baytda o'zini yorga nisbatan it kabi *vafodor* va *sadoqatli* ekanligini ifoda etishga harakat qilgan. Ma'lumki, Sharq mumtoz adabiyotida, chunonchi, tasavvuf adabiyotida it vafo, sadoqat va fidoyilik timsoli sifatida ulug'langan. Bunga doir ko'plab hikoyatlar yaratilgan, nazmiy asarlar ijod etilgan. Shunday hikoyatlardan birini keltirib o'tishni lozim deb hisoblaymiz: "Tasavvuf yo'lga kirgan Abu Usmon Mag'ribiy bu yo'lga kirishlikning ibtidosini shunday sharhlagan ekan: uning bir iti bo'lib, shu iti bilan muntazam ovga chiqar ekan. Kunlardan bir kun u yog'och kosasiga sut quyib,

ichmoqchi bo‘libdi. Buni ko‘rgan it ingrana boshlabdi. Mag‘ribiy kosadagi sutni ichmay erga qo‘yibdi. Ko‘p vaqt o‘tmay kosani yana qo‘liga olibdi. Bu gal it qattiqroq vovullab, unga hamla qilibdi. U kosadagi sutni ichmasdan erga quyibdi. Uchinchi marta ham shu ahvol takrorlanibdi. Shunda sutni itning o‘zi ichibdi va ko‘p vaqt o‘tmasdan it shishib o‘libdi. Ayon bo‘ladiki, ilon ul sutdin ichib, zaharni unga to‘kkan ekan. Itdan ul vafo ko‘rgachki, o‘zini manga fido qildi deb, o‘zining shu vaqtga qadar qilgan gunohlarining kechirilishi uchun tavba qilibdi va tariqat yo‘liga kiribdi”.

Zulfidakim maskan etting, ko‘r zanaxdon choxini,

Voqif o‘lg‘ilkim, erursen *ajdahning komida*.

Ajdaho (ajdar, ajdarho) eng murakkab va universal zoomorf obrazlardan bo‘lib, u turli xil xalqlar og‘zaki ijodida qanotli, og‘zidan o‘t purkaydigan ikki va undan ortiq boshli ilon qiyofasidagi afsonaviy maxluq obrazi sifatida talqin qilinadi.

«Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati»da *ajdahoga* shunday izoh beriladi: “Ajdaho 1. Ajdar; og‘zidan o‘t ufuruvchi va kishiga hamla etuvchi, damiga tortuvchi afsonaviy vahshiy maxluq. 2. Qasd qilguvchi, halok etuvchi; balo, ofat, dushman. 3. Qo‘riqchi, kuchli posbon”.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa *ajdarho* forscha so‘z ekanligi, afsonaviy katta ilon ekanligi, ko‘chma ma’noda qonxo‘r, yovuz odamga nisbatan nafratni ifodalashi aytiladi. Badiiy ijodda ajdaho, asosan, yovuzlik va ochko‘zlik timsoli sanaladi va ko‘chma ma’noda nafs, nafrat ma’nolarini ifodalashga xizmat qiladi. Ba’zan esa go‘zallik ramzi sifatida yorning jon oluvchi ko‘zi va pechu tob o‘rim sochiga nisbatan ham ajdaho metaforasi ishlatiladi. «O‘zbek tili teomorfik metaforalarning qisqacha konseptual lug‘ati»da ajdaho obrazi o‘ndan ortiq ko‘chma ma’nolarda qo‘llanilishi qayd etilgan. Jumladan, *ajdaho* so‘zi inson a‘zolari (soch o‘rimi, ko‘z), g‘oyat kuchli tuyg‘u (masalan, ishq, naf, ayovsizlik, rahm va shavqatsizlik), salbiy illatlar (manmanlik, ochko‘zlik, bosqinchilik), zararli tuzum (masalan, sobit totalitar tuzum, qatag‘on davri), dard (kasallik, g‘am-anduh, tashvish), sinovli va mashaqqatli turmush, jang-jadal (urush), texnik qurol (masalan, zambarak), bosqinchilar, zo‘ravonlar, jinoiy to‘dalar, nafs buzuvchi kimsalar, shuningdek, favqulodda qobiliyatli shaxslar (masalan, sportchilar)ga nisbatan poetik ko‘chimni ifodalashi aytib o‘tilgan. Mazkur baytimizda oshiqning boshiga kelgan xavf-xatarlar ajdarhoning komiga qiyoslangan. Ya’ni Oshiq ma’shuqaning zulfiga mahliyo bo‘lib, uning go‘zalligiga berilib ketadi. Ammo shoir ogohlantiradi: bu go‘zallik oshiqni xavfli tuzoqqa tushirishi, go‘yoki ajdarning og‘ziga kirgandek halokatli bo‘lishi mumkinligini takidlaydi.

Yor yog‘lig‘idin ko‘ngulni xursand ettim,

*Ruhum qushini* tori bila band ettim.

Ushbu baytda zoomorfik metafora qush bo‘lib, u ko‘pincha ruh qushi iborasi bilan klassik sharq she’riyatida keng ishlatiladigan metaforadir. Ruhning qushga qiyoslanishining bir necha sababi bor. Birinchi sabab erkinlik xususiyati. Qushlar erkin

uchadi. Klassik adabiyotda ruh ham erkin, jismga bog‘lanmagan mavjudot deb tasavvur qilinadi. Ya‘ni ruh ham qush kabi parvoz qilishga moyil deb qaraladi. Ikkinchi sabab ruhning tanadan chiqishi tasavvuri. Qadimiy tasavvurlarda inson o‘lganda ruh tanadan uchib chiqadi deb qaralgan. Bu holat ham qushning uchishiga o‘xshatilgan. Shuning uchun ham ko‘pincha ruh uchdi, jon qushi kabi iboralar ishlatiladi. Shuningdek, tasavvuf adabiyotida ruh ilohiy olamdan kelgan deb qaraladi. Ruh asl manziliga qaytishni istaydi. Bu holat ham qushning uyasiga uchib borishiga o‘xshatiladi. Ushbu baytda ham qush inson ruhi ma‘nosida kelgan.

2. **Fitomorfik metafora.** O‘zbek tili lug‘at boyligida o‘simlik nomlari muhim o‘rinni tashkil qiladi. O‘simlik nomlarida xalqning geografik hududga mansubligi, uzoq tarixiy madaniyati, turmush tarzi, ruhiy-ma‘naviy olami, mifologik va diniy qarashlari bevosita aks etadi.

Ayonki, *fito* (yun. *phyton* – o‘simlik) – o‘zlashma ko‘chma so‘zlarning birinchi yoki ikkinchi qismi; shu so‘zlarning o‘simlikka yoki o‘simliklar haqidagi fanlarga (mas, botanikaga) aloqadorligini bildiradi. *Morf* termini esa (yun. *morphe* – shakl) muayyan narsa yoki hodisaning shakli, tuzilishi va mazmuni ma‘nosini ifodalaydi. *Fitomorf metaforalar* deyilganda o‘simlik nomlari asosida shakllangan ko‘chma ma‘noli so‘zlar, metaforalar nazarda tutiladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur lirik asarlarida o‘simliklar, ularning nomi bilan bog‘liq metaforalar ko‘p ekanligi, ularning ko‘chma ma‘noda kelishi, insonga xos bo‘lgan xususiyatlarning o‘simlik obraziga ko‘chirilishi ko‘p uchraydi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, Z.M. Bobur lirik asarlarida o‘simliklardan *gul*, *sarv*, *daraxt*, *nihol*, *xor*, *xazon* kabilar nomi ko‘p miqdorda metafrasizatsiyalashtirilgan. Masalan,

Tutmagil, *ey gul*, ravokim, ishqing ichra bir g‘arib,  
Erga bosh qo‘yg‘ay xazon yafrog‘i yanglig‘ sarg‘arib.

Sharq she‘riyatida “yor” va uning yuzining gulga qiyoslanishi keng tarqalgan. Tabiatdagi eng go‘zal, nozik va yoqimli narsa sifatida qabul qilinadi. Shoirlar inson yuzini, ayniqsa ma‘shuqaning yuzini gulga qiyoslash orqali uning chiroyli, porloq va nozik ekanini ifodalaydi. Gul yangi hayot, yoshlik, sog‘inch va muhabbat ramzi. Shu sababli yor yuzini gulga qiyoslash shoirning ma‘shuqa muhabbatiga bo‘lgan e‘tiborini kuchaytiradi.

Yuzung, *ey sarv*, jonim gulshanining toza gulzori,  
Qading, *ey gul*, hayotim bog‘ining sarvi ravonidur.

Mumtoz adabiyotda sarv daraxti yorning qaddi-qomatiga qiyoslanishi uning o‘ziga xos tashqi ko‘rinishi va ramziy ma‘nolari bilan bog‘liq:

1. Tik va ozodalik: Sarv daraxti boshqa daraxtlar kabi egiluvchan emas, u hamisha tik, to‘g‘ri va baland o‘sadi. Bu yorning mag‘rur, aslzoda va go‘zal qaddi-qomatiga o‘xshatiladi.

2. Doimiy yashillik: Sarv to'rt faslda ham o'z rangini yo'qotmaydi. Bu yorning go'zalligi va unga bo'lgan muhabbatning boqiyiligini anglatadi.

3. Ozodlik timsoli: Adabiyotda sarv "ozod" deb ataladi (sarvi ozod), chunki u meva bermaydi. Meva bermaslik uni "dunyo tashvishlari" yoki "moddiy bog'liqliklar"dan xoli, hurlik timsoli sifatida ko'rsatadi.

4. Nafosat: Uning ingichka va silliq tanasi ayollarga xos latofat va noziklikni ifodalaydi.

Shu sababli, Bobur yorning bo'y-bastini tasvirlaganda "sarv" yoki "sarvi ravon" (yurib turgan sarv) istioralaridan ko'p foydalangan. Masalan:

Ham husnining binafshayu gul banda-bardasi,

*Ham sarv erur chamanda bir ozodkardasi.*

Abrashini eldurub etgach yiqildim, do'stlar,

Oxkim, **umrum daraxtini** yiqitti sarsare.

Baytdagi "umr daraxti" metaforasi ham tabiiy, ham falsafiy mantiqqa asoslangan bo'lib, inson hayotini daraxtning yashash tarziga o'xshatishdan kelib chiqqan. Ya'ni insonning kelib chiqishi (ajdodlari) - ildiz, uning shaxsi - tana, uning qilgan ishlari va avlodlari- shoh-butoqlardir. Daraxt ildizidan uzilsa, qurigani kabi, inson ham o'z o'zagidan uzilsa, ma'naviy inqirozga uchraydi. Daraxt kichik niholdan ulkan chinorga aylanganidek, inson ham jismonan va ruhan bosqichma-bosqich o'sadi. Har ikkisi ham vaqt o'tishi bilan «barg yozadi» (gullaydi) va oxir-oqibat keksalik (xazonrezgi) fasliga etadi.

Baytda izohtalab so'zlardan biri abrash bo'lib, arabiy o'zlashma so'z bo'lib "O'zbek tilining izohli lug'ati»da bu so'zga eskirgan (esk.) belgisi qo'yilgan bo'lib, «chavkar, xoldor ot» deb izohlangan. Shuningdek, u oq-qizil yoki oq-qora aralash rangdagi otni ifodalaydi deb izohlangan. Ushbu baytda esa u ajal tulpori ma'nosida qo'llanilgan. Keyingi izohtalab so'z sarsar so'zi arab tilidan olingan bo'lib, shiddatli va sovuq shamol ma'nolarni anglatadi: Bundan tashqari diniy manbalarda, xususan, "Qur'oni Karim"da Ood qavmini yetti kecha-yu sakkiz kunduz davomida qirib tashlagan halokatli shamol "sarsar" deb atalgan. Ushbu baytning mazmuni eng bahaybat daraxt ham qattiq shamolda (ajal sarsarida) yiqilishi mumkinligi, bu inson hayotining omonatligini va tabiat qonunlariga bo'ysunishini ifodalaydi.

*Ishq bog'ining niholi – g'am, bari – hirmon emish,*

*Qilmag'ay erdim bu gulshanni tamosho koshki.*

Ushbu baytda shoir yor hajridagi g'amni ishq bog'ining niholi deya atab, individual metaforizatsiyani yuzaga keltirgan. Tavsifi: "Ishq bog'ining ko'chati – g'am, uning mevasi esa faqat mahrumlik va umidsizlik ekan. Qaniydi (koshki), men bu bog'ni (ishq olamini) tamosho qilmagan, ya'ni bu yo'lga qadam qo'ymagan bo'lsam edi deya afsus- nadomatlar

chekadi. Keyingi baytda oshiqning Ichki iztirob, sog‘inch va og‘riqli o‘rtanishlari xortikanga o‘xshatilgan.

Fig‘onim oshti bulbuldin, g‘ami yo‘q zarra bu quldin,

Base, Bobur, o‘shal guldin *ko‘ngulda xorxorim* bor.

Tavsifi. “Mening dod-faryodim (ishq azobidagi nolam) bulbulning sayrashidan ham o‘tib ketdi (balandroq va dardi ko‘proq). Uning (yorning) esa bu «quldan» (oshiqdan) zarracha xabari yo‘q, unga rahmi kelmaydi, parvo qilmaydi. Ey Bobur, o‘sha «gul» (yor) sababli ko‘ngilda tinimsiz sanchiladigan «tikon» (azob va bezovtalik) bor. Ey Bobur, o‘sha «gul» (yor) sababli ko‘ngilda tinimsiz sanchiladigan «tikon» (azob va bezovtalik) bor”. Xorxor so‘zi forscha so‘zdan olingan bo‘lib, tikonning sanchilishi, tiralishi degan ma‘noni bildiradi. Uning shu xususiyati ko‘ngildagi ichki iztirob, sog‘inch va og‘riqli o‘rtanish kabi tuyg‘ularga ko‘chma ma‘noda qiyoslangan. Ya‘ni, badanga kirgan tikonni olib tashlamaguncha u og‘riq berib turgani kabi, ko‘ngilga tushgan ishq va sog‘inch o‘ti ham oshiqni to vasliga etguncha xuddi shunday bezovta qilaveradi».

Tani zorimni de, gulshanda shoxi notavon ko‘rsang,

Sarig‘ yuzumni sog‘in, bog‘ aro *bargi xazon ko‘rsang*.

Ushbu baytda esa yor hajrida ishqning yuzi xazon bargi kabi sarg‘ayganligiga qiyoslagan. “Agar bog‘da (gulshanda) nozik, zaif va kuchsiz bir shoxni ko‘rsang, mening ozib-to‘zigan, ingichka bo‘lib qolgan jabrdiyda tanamni esla. Agar bog‘da kuzgi sariq bargni ko‘rsang, mening ishq azobidan sarg‘aygan yuzimni yodga ol”, -deb shoir ta‘kidlamoqda.

**3. Kosmomorfik metafora.** Mumtoz adabiyot namoyandalari asarlarining aksariyatida koinot, uning inson ruhiyati va taqdiri bilan bog‘liq lavhalar, koinotning turfa manzaralari borasida qarashlar aks etganligining shohidi bo‘lish mumkinki, bu holat mumtoz sharq adabiyotining deyarli hamma asarlarida uchraydi. Turkiy adabiyotning eng qadimgi namunalarini “Qutatg‘u bilig” va “O‘g‘uznoma” asarlarida etti sayyora, o‘n ikki burj haqida so‘z yuritadi va insonning ko‘k farzandi ekanligi bilan bog‘laydi.

Quyosh va oyning samo yoritqichlari orasida yagonaligi, qiyossiz go‘zalligi, qadimdan muqaddaslashtirilgani singari bir qator sifatlari Z.M. Bobur va boshqa turkiygo‘y shoirlar g‘azaliyotida bu timsollarni ma‘shuqa va uning uzvlariga qiyoslash, ko‘chma ma‘noda qo‘llash ta‘sirchanlikni oshirish, mazkur ikki timsolni ma‘shuqaning istioraviy obraziga aylantirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Ko‘chma ma‘noni hosil qilgan oy so‘zi eng go‘zal, nurli va maftunkor narsa Oy hisoblangan. Shu bois yorning yuzi (tinikligi, dumaloqligi va nur sochishi) oyga o‘xshatilgan. «Oy yuzli» deganda, go‘zallikda tengsiz zot tushuniladi. Shuningdek, qorong‘u tunda Oy yagona najot va nur manbai bo‘lgani kabi, oshiqning g‘amli va zulmatli hayotida yorning vasli Oyga qiyoslanadi.

Qadam ranja qilib, boshimg‘a kelgaymu debon *ul oy*,

Tutubmen poyi devori, qilib maskan sari ko‘yi.

Shoxim, sanga ma‘lum emastur, ne qilay?

Ohim sanga ma'lum emastur, ne qilay?

Men yuzu qoshing dermenu sen – *badru hilol*,

*Mohim*, sanga ma'lum emastur, ne qilay?

Oyning sinonim so'zlari badr, hilol va moh o'zlashma samoviy jism so'zlari bo'lib, badr so'zi arabcha so'zdan olingan bo'lib, to'lin oy degan ma'noni bildiradi. Hilol so'zi (arabcha) yangi tug'ilgan oy; Oyning dastlabki uch kunlikdagi ingichka, yoysimon ko'rinishi. Ko'chma ma'noda odatda klassik adabiyotda yorning egri qoshlariga yoki nozik qomatiga nisbatan ishlatiladi. Moh forscha so'zdan olingan bo'lib, (forscha) 1. Osmon jismi, erning yo'ldoshi. 2. Oy (vaqt birligi): Taqvimdagi 30 kunlik muddat. Ko'chma ma'noda go'zal, nurli yuzli mahbuba ma'nosida keladi. Ushbu to'rtlikda oy go'zal yor ma'nosida, badr yorning yuzi, hilol yorning qoshlari ma'nosida kelgan.

*Quyoshim* har sorig'a azm kilsa, zarrae qolmon,

Ne uchunkim, agar ayrilsam ondin, kun ko'ra olmon.

Quyosh esa ulug'vorlik, yuksaklik va hayotbaxshlik ramzi. Odatda shohlar yoki komil insonlar quyoshga qiyoslanadi. Oy va Quyosh samoda, inson qo'li etmaydigan balandlikda. Bu oshiq uchun etishib bo'lmaydigan, olis va muqaddas. Ushbu baytda quyosh so'zi yor obrazini yaratishga xizmat qilgan. SHoir yorini «Quyoshim» deb atash orqali uni hayot manbai, nur va issiqlik beruvchi zot sifatida ifodalaydi. Quyoshsiz hayot bo'lmaganidek, yorsiz oshiqning borligi ham ma'nosiz.

4. **Naturmorfik metafora. Tabiat** – bu inson faoliyati bilan to'liq yoki qisman aralashmagan, o'z tabiiy qonun-qoidalariga bo'ysunadigan, hayotiy va nohayotiy elementlar (suv, havo, yer va osmon, fasllar) hamda ularning jarayonlarini o'z ichiga olgan umumiy majmuidir.

Tabiat hodisalariga yomg'ir, shamol, to'fon, zilzila, sel, chaqmoq, bulut bo'lishi, qor yog'ishi, kamalak chiqishi, suv toshqinlari va oy tutilishi kabilarni kiritish mumkin. Z.M. Bobur o'zining g'azallarida tabiat hodisalaridan ko'chma ma'no sifatida foydalanib, metaforaning juda chiroyli, takrorlanmas ko'rinishlarini yaratdi. Masalan,

*Ko'nglumda o'tu* ikki ko'zumda sudur,

Men xastag'a rahm qilki, holim budur.

Baytdagi O't– olov, ishq otashi ma'nosida insonning ichki dunyosi, qalbi ishq azobidan yonayotganini anglatadi. Su (Suv)– ko'z yoshi sovuqlik va namlik ma'nosida kelgan."Mening ichim yonyapti, tashim esa ko'z yoshlariga g'arq bo'lgan. Ey yor, mana shunday ayanchli va ziddiyatli holimga rahming kelsin"- deya iltijo qilmoqda. Keyingi misolimizda o't so'zi firoq ma'nosida kelgan:

**Firoq o'tida** ovunsam chog'ir bila, ne ajab,

Magar bu suv bila ul shulani o'churgaymen.

Firoq (ayriliq) va o't (olov) tushunchalarining bir-biriga qiyoslanishi insonning ruhiy va jismoniy holati bilan bog'liq. Ya'ni olov tegib turgan narsani kuydirgani va qiynagani kabi, ayriliq (firoq) ham inson qalbini ich-ichidan xuddi shunday azob bilan kuydiradi.

Oshiq firoqda qolganda, uning vujudida «ishq harorati» ko'tariladi, yuzlari qizaradi, nafasidan issiq «oh» chiqadi. Bu fizikaviy alomatlar olovning ta'siriga juda o'xshash. Olov tushgan narsasini kulga aylantirib, yo'q qilganidek, uzoq davom etgan firoq ham oshiqning sabr-toqatini, sog'lig'ini va jismini ado qiladi. Shu sabadan ham firoq so'zi o'tma'nosida kelgan.

Ishq elining ohidin ul sarv qad xam bo'lmasun,

**G'am elidin** ul muanbar zulf darham bo'lmasun.

Mumtoz dabiyotda, xususan, Z.M. Bobur ijodida yel (shamol)ning g'am ma'nosida kelishida bir necha muhim badiiy va mantiqiy sabablarga ega bo'lib, ulardan biri shamol esganda tabiatdagi narsalar (barglar, shoxlar) to'zib, tartibsiz holga keladi. G'am ham inson ko'ngliga kelganda, uning fikrini, orom-oyishini va ruhiyatini xuddi shamoldek to'zitib yuboradi (sochni to'zitgani kabi). Yana bir muhim sabab shundan iboratki, shamol inson ixtiyorisiz esadi. G'am ham inson xohishsiz, to'satdan keladigan va qarshi turish qiyin bo'lgan tabiiy kuchdek tasvirlangan. Shuningdek, kuchli shamol (bo'ron) daraxtlarni egib, gullarni to'kkani kabi, «g'am eli» ham insonning sabr-bardoshini va go'zalligini emirishi mumkin.

G'am – bu ko'ngil tartibini buzuvchi ichki «bo'ron»dir. SHoir yorning nafaqat tashqi ko'rinishi (zulfi), balki ichki dunyosi ham bu «g'am eli»dan omon bo'lishini tilamoqda. Keyingi baytlarimizda chang va tun so'zlari ham g'am sozi bilan birikib sifatlovchi – aniqlovchi tipidagi naturmorfik metaforani hosil qilgan.

Yoru soz aylab bir nishotangez chang, ey dilrabo,

Benavo ko'nglumni **g'am changidin** ozod aylagil.

Qadimgi davrda inson qalbi pokiza, tiniq oynaga o'xshatilgan. Oyna yuziga chang qo'nsa, u xiralashadi va aks ko'rsatmaydi. G'am ham ko'ngilga tushganda, uning tiniqligini yo'qotadi, insonning ruhiy dunyosini xiralashtiradi. Shu bois «g'am changi» yoki «g'am g'ubori» iboralari ishlatiladi.

Quyoshg'a zarra nazar solmag'ay sevunmakdin,

Qutulsa **g'am tunidin**, ko'rsa yona Bobur oyin.

Ma'lumki, mumtoz adabiyotda yor bilan birga bo'lgan vaqt – kunduz (yorug'lik), ayriliq va hijron vaqti esa – tun (zulmat) hisoblanadi. Tun – inson yo'lini yo'qotadigan, qo'rquv va vahima bosadigan payt. G'am ham xuddi tunde inson ruhiyatini qoplab oladi, uning qalbini zulmatga cho'mtiradi va najot yo'lini ko'rsatmay qo'yadi. Bundan ko'rish mumkinki, **yel, chang, tun so'zlari g'am so'zi** bilan birikib, metaforaning eng go'zal ko'rinishini yaratgan.

Jong'a soldi da'f **g'urbat norini**,

Ko'z yoshim bo'ldi mo'g'ulning norini.

Bu aroda men degandek bo'lmasa,

Ko'zlay Issig'ko'lu andin norini.

Ushbu misralar Zahiriddin Muhammad Boburning tuyuq janrida yozilgan she'ri bo'lib, omonimik so'z bu nor so'zi bo'lib, uning birinchi ma'nosi (forscha) - *tamg'a, bel; badandagi qizg'ish dog'*; ikkinchi ma'nosi nor -(forscha) *bir o'rkachli tuya*, uchinchi ma'nosi nor (forscha) - *anor daraxti*, to'rtinchi ma'nosi nor (arabcha)- *o't, olov; do'zax* [O'TIL, 56]. Shoir musofirlik azobi jonini olov kabi kuydirayotganini, ko'z yoshlari ham iztirob belgisi ekanini aytadi. U o'z taqdiridan norozi holda vatani tomonga, xususan Issiqko'l tomonga sog'inch bilan qarab yashayotganini ifodalaydi. Birinchi misrada g'urbat azobi inson jonini kuydiruvchi olov sifatida tasvirlangan. Bu yerda "g'urbat" va "nor" so'zlari o'zaro birikib, kuchli metaforik ma'no hosil qilgan.

***Bahor ayyomidur, dog'i yigitlikning avonidur,***

Ketur, soqiy, sharobi nobkim, ishrat zamonidur.

Bahor so'zi o'zining asosiy (fasl) ma'nosidan tashqari, o'zbek tilida inson umrining yoshlik davri, sevgi va muhabbat, baxt va shodlik, mashuqa timsoli, uyg'onish va ozodlik, umid va kelajak kabi ko'chma va ramziy ma'nolarda qo'llaniladi. Ushbu baytda bahor fasli orqali "Vaqt g'animat" g'oyasini badiiy ifodalash uchun xizmat qilgan. Bahor o'tib ketsa, qish keladi; yigitlik o'tsa – qarilik. Shu bois, ayni kuchga to'lgan damlarda hayot zavqini surish kerakligi ta'kidlanmoqda.

***Yoz fasli, yor vasli,*** do'stlarning suhbatlari,

She'r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati.

Baytda "Yoz" shunchaki vaqt emas, balki barcha yaxshiliklar jamlangan "hayotning guli" ma'nosida ko'chma ma'no (metafora) kasb etgan.

5. **Teomorfik metafora.** *Teomorfik metafora* - bu afsonaviy-diniy tushunchalar yordamida ko'chma ma'no hosil qilish demakdir. *Afsona* so'zi fors tilidan olingan bo'lib, *hikoya, naql; uydirma* degan ma'nolarni bildiradi. U xalq og'zaki ijodi janri bo'lib, avlodlardan avlodga, og'izdan-og'izga o'tib kelgan uydirma, to'qimadan iborat. Ba'zan diniy mazmundagi hikoya, rivoyat va shu kabilarni o'z ichiga oladi. Z.M. Bobur lirik asarlarida afsonaviy-diniy tushunchalar bilan bog'liq bo'lgan metaforalarni ko'p o'rinlarda kuzatishimiz mumkin.

Qadining xayolin ko'z asrab magar,

***Ko'ngul ravzasig'a*** nix,ol eltadur?

Ushbu baytda "Ko'ngul ravzasi" (ko'ngil bogi) iborasining metafora bo'lishiga sabab – bu erda insonning ichki dunyosi (qalbi) va jannat bog'i o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, mazmunning ko'chirilishidir. Ya'ni inson qalbini ramziy ma'noda "ravza" (jannat bog'i) deb atash orqali shoir murakkab ruhiy holatni konkret va go'zal tasvir (obraz) holiga keltirgan. Ravza so'zi arab tilidan olingan bo'lib, bir nechta ma'nolarni anglatadi: 1. Bog', chamanzor: Lug'aviy jihatdan ko'kalamzor, daraxtzor va gullar bilan bezatilgan go'zal joy. 2. Jannat: Klassik adabiyotda va diniy matnlarda ko'pincha "jannat" yoki "jannat bog'i" ma'nosida qo'llaniladi (masalan, *Ravzai rizvon*). 3. Qabr/Maqbara: Ehtirom yuzasidan aziz-avliyolar yoki ulug' zotlarning qabri ham "ravza" deb ataladi

(masalan, Madinai munavvaradagi Payg‘ambarimiz s.a.v.ning qabrlari – *Ravzai muborak*. [112, O‘TIL] Boburning yuqoridagi baytida "ko‘ngul ravzasi" birikmasi qo‘llangan bo‘lib, bu erda ko‘ngil jannatdek go‘zal bir bog‘ga o‘xshatilmoqda.

Xati labig‘a tutosh bo‘lsa, ey ko‘ngul, ne ajab-ki,

*Xizr chashmai hayvonga rahnamoedur.*

Bobur ushbu baytda an‘anaviy sharq she‘riyatiga xos bir qancha obrazli ko‘chimlardan foydalangan: 1. Yorning labi atrofidagi mayin, yashil tuklar (xat) Xizr alayhissalomga o‘xshatilmoqda. Chunki Xizr hamisha yashil libosda tasvirlanadi va yo‘l ko‘rsatuvchi hisoblanadi. 2. Lab – Chashmai hayvon (Obi hayot): Yorning labi insonga jon bag‘ishlovchi, o‘lgan qalbni tiriltiruvchi mangulik bulog‘iga metafora qilingan. 3. Rahnamo (Yo‘l ko‘rsatuvchi): “Xat”ning labga tutash kelishi, xuddi Xizrning suv izlaganlarga yo‘l boshlashiga qiyoslangan.

O‘tmishda Xizr va Obi hayot haqidagi juda ko‘plab afsonalar yaratilgan bo‘lib, ayniqsa, “Iskandarnoma” asarlarida keng tarqalgan. Uning qisqacha mazmuni quyidagicha: Buyuk hukmdor Iskandar Zulqarnayn o‘limdan qo‘rqib, mangu yashash ishtiyoqida yonadi. U dunyoning chetida, quyosh botmaydigan Zulmat (Qorong‘ulik) diyorida “Obi hayot” (Tiriklik suvi) borligini eshitadi. Kim shu suvdan ichsa, unga o‘lim yaqinlashmaydi. Iskandar o‘z qo‘shini bilan Zulmatga yo‘l oladi. Unga yo‘l ko‘rsatuvchi va qo‘shin bayroqdori sifatida Xizr (a.s.) va ayrim rivoyatlarda Ilyos (a.s.) hamrohlik qiladi. Zulmat ichida hech narsa ko‘rinmaydi, yo‘l topish mushkul bo‘ladi.

Taqdir taqozosi bilan, Xizr va Ilyos tasodifan Obi hayot bulog‘iga duch keladilar. Ular suvdan ichib, mangu tiriklikka erishadilar. Iskandar esa qancha harakat qilmasin, qismatida bo‘lmagani uchun bu buloqni top olmaydi va zulmatdan quruq qo‘l bilan qaytadi. Afsonalarga ko‘ra, Xizr hali ham tirik va u cho‘lda, safarda yo‘l yo‘qotganlarga, muhtojlarga yashil libosda zohir bo‘lib, to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatadi.

Bobur ushbu afsona orqali shunday demoqchi: “*Yorning yuzidagi yashil tuklar xuddi Xizr kabidir, ular mening nazarimni jon bag‘ishlovchi lab bulog‘iga etaklab bormoqda*”.

*Yorning payg‘omi etkach*, topti jon farsuda tan,

*Iso e‘jozi* magar muzmardurur payg‘omida?

Baytda izohtalab so‘zlar juda ko‘p bo‘lib, ulardan biri *payg‘om* –forscha so‘z bo‘lib, “xabar”, “xushxabar”, “maktub [NATIL.221], *farsuda*–forscha so‘z bo‘lib, “eskirgan”, “yeyilgan”, “horigan” degan ma‘nolarni anglatadi [NATIL, 312]. *E‘joz*–arabcha so‘z bo‘lib, “mo‘jiza”, “hayratda qoldiruvchi kuch” [NATIL.116], muzmar–arabcha so‘z bo‘lib, “yashiringan”, “ko‘ngilga tugilgan”, “pinhon” deganidir [NATIL.497].

Shoir yoridan kelgan xabarni shunchalik intiqlik bilan kutganki, u yetib kelganida o‘lim holatidagi oshiq qayta tirilgandek bo‘ladi. Bu xabarning ta‘sirini u ilohiy kuchga –Iso payg‘ambarning nafasiga (o‘liklarni tiriltirish mo‘jizasiga) o‘xshatmoqda.

6. **Abiomorfik metafora. Abiomorfik metafora**– jonsiz tabiat predmetlari (tosh, temir, muz, po'lat) xususiyatlarining boshqa narsalarga, asosan inson xarakteri yoki holatlariga ko'chirilishidir.

Hajringda bu tun ko'ngulda qayg'u erdi,

Vaslingg'a etishmadim – jihat bu erdi:

**Ohim tutuni** birla ko'zumning yoshidin

Yo'l balchiq edi, kecha qarong'u erdi!

Ushbu baytda oshiqning hijron (ayriliq) azobidan chekayotgan oh-nolasi yurakdagi otash (olov) natijasi deb qaraladi. Olov bor joyda esa, albatta, tutun bo'ladi. Ya'ni, oshiqning dardi shunchalik kuchliki, uning ichidagi olovdan chiqqan tutun ko'kka ko'tariladi. Bu erda insonning ichki iztirobi va hasrati **olovga**, bu iztirobning tashqi ifodasi (ohi) esa shu olovdan chiqayotgan **tutunga** o'xshatilmoqda. Olov (dard) aytilmay, faqat uning belgisi (tutun) keltirilgani uchun bu yopiq metafora hisoblanadi.

Vafo maktubi birla **g'amza o'qin** hech yozmaysen,

Jafo rasmiyu javr oyinini hargiz yongilmaysen.

“G'amza o'qi” birikmasi mumtoz she'riyatdagi eng mashhur metaforalardan biri bo'lib, uning asosi shakl va harakat o'xshashligi, natija va ta'sir, kabi mantiqiy bog'liqliklarga tayanadi. Yorning kipriklari o'qqa, qoshlari esa yoyga (kamonga) o'xshatiladi. G'amza (ishvali qarash) paytida kipriklarning sanchilishi go'yo kamondan otilgan o'qdek oshiq qalbini teshib o'tadi. O'q insonga jismoniy jarohat yetkazsa, yorning g'amzasi oshiqning ko'ngliga ruhiy azob va "jarohat" beradi.

**G'urbat tug'i** yopqon ruhi zardimnimu dey?

Yo hajr chiqargon ohi sardimnimu dey?

Tarixdan ma'lumki, Z.M. Bobur ma'lum sabablarga ko'ra uzoq yillar davomida vatandan yiroqda yashashga majbur bo'lgan. Shu sababdan ham shoir vatandan yiroqdagi ruhiy holati chuqur sog'inch, iztirob va doimiy armonini lirik asarlarida va “Boburnoma”da jo etishga harakat qilgan. Ushbu baytimizda ham sog'inch, iztirob va doimiy armon hissi singdirilgan. Ya'ni “g'urbat” (musofirlik, ona vatandan uzoqlik) bir bayroqqa o'xshatilyapti. Bayroq biror hududni egallaganini bildirgani kabi, g'urbat ham shoirning borligini (ruhini) butunlay egallab olgan.

Eyki, yorolig' jismima marham sensen,

Majruh ko'ngulg'a **nishtar** xam sensen.

*Nishtar* so'zi fors-tojik tilidan olingan bo'lib, quyidagi ma'nolarni anglatadi: 1. Jarrohlik asbobi. Qadimda va hozirda tibbiyotda qon chiqarish yoki jarohatni yorish uchun ishlatiladigan o'tkir tig'li, keskir asbob. 2. Sanchiluvchi a'zo: Hasharotlar yoki zaharli jonivorlarning nishi (masalan, arining nishi). Eski tibbiyotda jarohat ichidagi illat yoki yiringni chiqarib tashlash uchun nishtar bilan tig' urilgan. Shoir aytmoqchiki: «Ko'nglim yaralangan, uni davolash uchun esa faqat (yorning) o'tkir nishtari kerak». Ya'ni, yor ham dard beruvchi, ham o'sha dardni kesib davolovchi yagona «hakim»dir.

Hijron qafasida jon qushi ram qiladur,

G'urbat bu aziz umrni kam qiladur.

Ushbu baytda ayriqliq va hijron holati qafasga o'xshatilmoqda Qanday qilib qafas qushning erkinligini cheklasa hijron ham inson ruhiyatini shunday mahzunlik va tutqunlikda saqlaydi.

7. **Toponimik metafora.** *Toponimik metafora* (yoki makon metaforasi) – bu biror narsa yoki hodisaning xususiyatlarini ifodalash uchun makon, joy va geografik ob'ekt nomlaridan (sahro, bog', tog', yo'l, shahar va h.k.) foydalanishdir.

*Zuhd sahsig'a* tushtum ishq yo'lidin ozib,

Boburi gumraxni emdi kim bu yo'lg'a ko'ndurur?

Shoir «zuhd»ni (taqvodorlik, dunyo lazzatlaridan voz kechish) **cheksiz va quruq sahroga** - aniq bir geografik makon –**sahroga** qiyoslanmoqda.

Ne balo biyikturur davlat tog'i,

Ko'hi g'amni ne bilur davlat tog'i.

Ushbu baytda ikkita asosiy **toponimik metafora** mavjud bo'lib, ular o'zaro zidlantirilgan:

1. Davlat tog'i (Metafora): Bu erda «davlat» (boylik, amal, yuksak martaba) baland va mag'rur tog'ga o'xshatilmoqda. Tog'ning «biyik» (baland) bo'lishi – amaldor yoki boy kimsaning jamiyatdagi yuqori mavqeini anglatadi.

2. Ko'hi g'am (G'am tog'i): «Ko'h»forschada «tog'» degani. Inson chekayotgan cheksiz g'am va iztiroblar ham o'z hajmiga ko'ra ulkan bir tog' sifatida tasvirlangan.

Labing gar bermasa bo'sa, nechuk jon elta olg'ayman,

Bu yo'ldakim, adam sahsig'a emdi ravon bo'ldum

“*Adam*” – yo'qlik, yo'q bo'lish degani. Shoir o'lim yoki yo'qlik olamini bepoyon va dahshatli sahroga o'xshatmoqda. Inson hayoti tugab, yo'qlikka yuz tutishini bir makondan ikkinchi makonga (sahroga) o'tish sifatida tasvirlagan.

Yana ko'z uyida ma'vo qilibsen,

Ko'ngul koshonasida jo qilibsen.

Ushbu baytda shoir ikkita parallel toponimik metafora qo'llangan. Shoir inson a'zolarini muayyan yashash joylariga (binolarga) o'xshatadi: Ko'z uyi- Insonning ko'zi bu erda “uy” (manzil) deb atalmoqda. Yorning qiyofasi oshiqning ko'z o'ngidan ketmasligi, uning doim oshiq nigohida ekanligi «ko'z uyida istiqomat qilish» (ma'vo qilish) sifatida tasvirlangan. Ko'ngul koshonasi- Ko'ngil (yurak) esa oddiy uy emas, balki “koshona” (hashamatli saroy, go'zal imorat) sifatida metafora qilingan. Bu bilan shoir ko'ngilning naqadar aziz va yor yashashi uchun munosib, go'zal makon ekanini ta'kidlamoqda.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Bobur lirik asarlaridagi **metaforalar** she'riy matnning badiiy-estetik qiymatini oshiruvchi, mazmuni chuqurlashtiruvchi va obrazlilikni kuchaytiruvchi muhim poetik vosita hisoblanadi. Ular orqali shoirning

individual uslubi, poetik mahorati hamda o'zbek mumtoz adabiyotining boy badiiy an'analari yorqin namoyon bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Фан, 2010.
2. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Курбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технология, 2009.
3. Қўнғиров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977.
4. Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002.
5. Ҳожиаҳмедов А. Шеъринг санъатлари ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ, 1998.
6. Фитрат. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. V жилдлик. – Тошкент: Маънавият, 2006. IV жилд.
7. Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеъринг. – Тошкент: Ғ.Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.
8. Маҳмараимова Ш, Ўзбек тили теоморфик метафораларнинг қисқача концептуал лугати. – Тошкент: Чўлпон, 2018.
9. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдлик. – Тошкент: ЎзМЭ, 2005-2008. –Т. 2. 2005.
10. Эшонкулов Х. Самовот – ишқ мазҳари. – Тошкент: Фан, 2008.

